

Tashqi savdo aylanmasi


2026-yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport ko'rsatkichlari
- III. Import ko'rsatkichlari
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 49,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 3,7 mlrd AQSH dollariga yoki 8,1 foizga oshdi.

Tashqi savdo aylanmasi*
yanvar-iyul, mln AQSH dollari



TSAning umumiy hajmida eksport 19,9 mlrd AQSH dollarini (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,6 foizga kamaygan), import esa 29,6 mlrd AQSH dollarini (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 17,8 foizga oshgan) tashkil etdi. Natijada 9,7 mlrd AQSH dollari miqdorida manfiy saldo qayd etildi.

Ayni paytda oltinni hisobga olmaganda, tovarlar eksporti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,7 foizga o'sib, 9,8 mlrd AQSH dollarini tashkil qildi.

* Press-relizda oldingi yillar uchun keltirilgan barcha raqamlar yillik bojxona va statistika ma'lumotlari asosida qayta hisob-kitob qilingan.

O'zbekistonning yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
yanvar-iyul, mln AQSH dollari

	2024-y.	2025-y.	2026-y.
Xitoy	6 848,0	8 426,5	11 260,9
Rossiya Federatsiyasi	6 840,4	7 266,2	8 125,4
Qozog'iston	2 274,0	2 634,1	3 265,3
Turkiya	1 718,4	1 608,3	1 645,9
Afg'oniston	571,0	845,1	1 232,3
Fransiya	745,5	832,4	1 087,9
Koreya Respublikasi	1 193,1	988,3	1 074,5
BAA	382,3	676,2	928,7
Turkmaniston	757,0	672,4	779,4
Gonkong*	59,1	85,2	776,8
Qirg'iz Respublikasi	466,2	505,1	776,7
Germaniya	602,5	760,5	741,0
Hindiston	476,1	748,2	698,7
Belarus	383,7	492,5	632,1
AQSH	558,9	540,2	621,3
Tojikiston	372,6	389,8	565,0
Eron	255,4	280,0	360,7
Italiya	249,4	253,6	303,3
Vetnam	105,5	158,9	281,5
Ukraina	121,8	187,0	248,9

O'zbekiston jahonning 200 dan ortiq mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (22,7 foiz), Rossiya Federatsiyasi (16,4 foiz), Qozog'iston (6,6 foiz), Turkiya (3,3 foiz) va Afg'oniston (2,5 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

Ekspart tarkibida tovarlar ulushi 63,2 foizni tashkil etadi. Shundan sanoat tovarlari – 14,4 foiz, turli tayyor mahsulotlar – 8,4 foiz, kimyoviy moddalar va shu kabi mahsulotlar – 7,8 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar esa 7,7 foizga to'g'ri keladi.

* Xitoy maxsus ma'muriy hududi

II. Eksport ko'rsatkichlari*

yanvar-iyul

Tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami eksport	20 681,2	19 931,3	138,7	96,4	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 509,2	1 543,4	139,6	102,3	7,3	7,7
Ichimliklar va tamaki	110,6	155,2	158,0	140,3	0,5	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	158,8	184,9	86,9	116,5	0,8	0,9
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	884,1	931,5	112,6	105,4	4,3	4,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	36,1	73,2	155,3	203,1	0,2	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 153,3	1 556,9	115,0	135,0	5,6	7,8
Sanoat tovarlari	2 341,9	2 867,0	94,5	122,4	11,3	14,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	561,3	757,2	82,5	134,9	2,7	3,8
Turli xil tayyor buyumlar	890,4	1 683,6	134,5	189,1	4,3	8,4
Boshqa tovarlar	7 619,8	2 853,1	180,3	37,4	36,8	14,3
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>7 589,1</i>	<i>2 803,8</i>	<i>180,9</i>	<i>36,9</i>	<i>36,7</i>	<i>14,1</i>
Xizmatlar	5 415,9	7 325,3	145,5	135,3	26,2	36,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xalqaro standart savdo tasnifi \(XSST-2008\) bo'yicha eksport tarkibi \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksporti hajmi

2026-yil yanvar-iyul, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi (14,2 foiz), Xitoy (8,5 foiz), Afg'oniston (5,5 foiz), Qozog'iston (4,4 foiz), Fransiya (4,3 foiz), Gonkong (3,6 foiz), Turkiya (3,0 foiz), Qirg'iz Respublikasi (2,9 foiz), Tojikiston (2,2 foiz) va Birlashgan Arab Amirliklari (2,1 foiz) bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi hissasi 50,0 foizdan oshdi.

* "Boshqa tovarlar" guruhidagi nomonetar oltindan tashqari qimmatbaho metallar eksporti hajmlari "Sanoat tovarlari" guruhidagi rangli metallar tarkibida aks ettirilgan

XSST bo'yicha eksport tovarlar tarkibi
2026-yil yanvar-iyul

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 543,4	102,3
05	Sabzavotlar va mevalar	1 059,7	96,0
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	340,7	114,6
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	33,1	70,6
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	28,5	2,5 b.
00	Tirik hayvonlar	21,4	2,9 b.
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	18,8	108,2
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	15,2	152,1
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	12,6	2,6 b.
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	11,4	138,8
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	2,0	87,3
1	Ichimliklar va tamaki	155,2	140,3
11	Ichimliklar	101,9	199,0
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	53,3	89,8
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	184,9	116,5
28	Metall rudalari va metall parchalari	47,9	2,9 b.
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	41,8	199,3
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	37,8	69,3
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	33,6	83,7
25	Qog'oz massasi va makulatura	13,4	88,1
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	7,8	81,6
24	Probka va yog'och-taxtalar	1,5	174,0
23	Tabiiy kauchuk	1,0	92,8
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,1	0,0
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	931,5	105,4
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	515,9	151,2
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	279,7	63,8
35	Elektr toki	134,0	130,3
32	Ko'mir, koks va briketlar	2,0	126,7
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	73,2	203,1
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	70,8	196,6
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	2,5	42,6 b.
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 556,9	135,0
52	Noorganik kimyo moddalari	944,8	147,2
56	O'g'itlar	255,3	101,4
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	167,8	125,2
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	63,6	143,4
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	39,7	153,6

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	26,4	146,9
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	25,5	161,4
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	17,5	169,1
51	Organik kimyo moddalari	16,3	145,1
6	Sanoat tovarlari	2 867,0	122,4
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 152,2	126,3
68	Rangli metallar	1 042,2	107,8
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	207,7	129,7
67	Cho'yan va po'lat	185,1	191,5
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	178,5	147,0
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	38,0	135,5
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	25,1	188,9
62	Rezina buyumlari	19,2	108,4
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	18,9	75,7
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	757,2	134,9
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	176,6	131,4
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	157,2	97,8
784	shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari	129,3	95,2
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	119,4	138,9
79	Boshqa transport uskunolari	115,7	159,6
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	78,9	2,3 b.
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	61,6	3,5 b.
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	42,2	85,4
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	3,7	85,7
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,1	112,1
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 683,6	189,1
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	868,4	3,2 b.
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	752,3	130,0
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	31,5	2,8 b.
85	Poyabzal	14,8	159,7
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	7,0	51,6
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5,1	140,3
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	4,2	99,4
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	0,3	54,1
9	Boshqa tovarlar	2 853,1	37,4
97	Nomonetar oltin (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	2 803,8	36,9
93	Maxsus operatsiyalar va turlari bo'yicha tasniflanmagan tovarlar	49,3	160,8


2026-yilning yanvar-iyul oylarida 1 283,9 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,4 foizga yoki 5,5 ming tonnaga ko'paygan.

Meva va sabzavotlar eksporti
yanvar-iyul

	2025-yil		2026-yil	
	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari
Jami	1 278,5	1 066,6	1 283,9	1 025,4
mevalar va rezavorlar	290,8	330,8	251,0	308,0
shaftoli	87,9	80,5	92,3	91,7
quritilgan uzum	54,6	73,3	51,6	62,1
gilos	34,3	72,5	25,2	59,9
quritilgan olxo'ri	23,5	33,0	17,7	33,0
o'rik	61,0	46,7	26,4	32,4
uzum	29,5	24,9	37,8	28,9
sabzavotlar	484,2	165,9	539,6	200,5
piyoz	284,0	79,7	304,1	89,3
karam	126,9	48,7	139,4	54,7
pomidor	30,8	24,8	33,0	34,4
sabzi	39,2	8,0	57,5	13,1
sarimsoq	3,4	4,7	5,6	8,9
<u>tarvuz va qovun</u>	175,7	41,9	173,9	55,1
<u>veryong'oq va yong'oqlar</u>	13,1	31,2	13,3	30,3
<u>mosh</u>	33,6	32,1	35,7	33,9
<u>boshqa</u>	281,1	464,6	270,5	397,5

2026-yilning yanvar-iyul oylarida meva-sabzavotlar eksporti 1 025,4 mln AQSH dollarini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 3,9 foizga tushgan bo'lib, uning umumiy eksportdagi ulushi 5,1 foizga teng bo'ldi.


To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2026-yilning yanvar-iyul oylarida 1,9 mlrd AQSH dollari qiymatidagi to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi. Bu umumiy eksport hajmining 9,5 foizini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 26,6 foizga oshgan.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibida asosiy ulush tayyor to'qimachilik mahsulotlari (52,2 foiz) hamda ip-kalavaga (31,4 foiz) tegishli bo'ldi.

Xizmatlar eksporti
2026-yil yanvar-iyul oylari, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

2026-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra xizmatlar eksporti hajmi 7,3 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksport hajmidagi ulushi 36,8 foizga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 35,3 foizga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibida asosiy ulush sayohat (turizm) (53,8 foiz), transport xizmatlari (31,7 foiz), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,5 foiz) hamda boshqa ishbilarmonlik xizmatlariga (2,9 foiz) tegishli bo'ldi.

III. Import ko'rsatkichlari

Mazkur davrda import hajmi 29,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan import 17,8 foizga o'sgan). Uning tarkibida asosiy ulush mashina va transport uskunalariga (32,8 foiz), sanoat tovarlariga (14,8 foiz), shuningdek, kimyoviy moddalar va shu kabi mahsulotlarga (12,1 foiz) to'g'ri keladi.


Tovarlar importi dinamikasining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2026-yilning yanvar-iyul oylarida, 2025-yilning mos davriga nisbatan, tovarlar importi hajmi 4,1 mlrd AQSH dollariga oshib, 26,0 mlrd AQSH dollarini, xizmatlar importi esa 3,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasining importi tarkibi *
yanvar-iyul

XSST tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami import	25 122,2	29 603,6	113,6	117,8	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 316,8	3 287,2	113,6	141,9	9,2	11,1
Ichimliklar va tamaki	192,6	222,2	137,2	115,3	0,8	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	797,2	909,8	135,0	114,1	3,2	3,1
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	2 266,6	2 510,0	89,7	110,7	9,0	8,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	289,7	363,0	150,8	125,3	1,2	1,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 106,0	3 589,2	113,5	115,6	12,4	12,1
Sanoat tovarlari	3 984,6	4 387,6	117,9	110,1	15,9	14,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	8 084,1	9 700,4	103,6	120,0	32,2	32,8
Turli xil tayyor buyumlar	893,6	1 018,3	112,0	114,0	3,6	3,4
Xizmatlar	3 191,0	3 615,9	167,7	113,3	12,7	12,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida importi hajmi
2026-yil yanvar-iyul, mln AQSH dollari



Umuman, 2026-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga 160 dan ortiq mamlakatdan tovar va xizmatlar import qilingan. Umumiy import hajmining 65,0 foizdan ortig'i Xitoy (32,3 foiz), Rossiya Federatsiyasi (17,9 foiz), Qozog'iston (8,1 foiz), Turkiya (3,5 foiz), Koreya Respublikasi (3,5 foiz), Turkmaniston (2,2 foiz) va Germaniya (2,2 foiz) kabi yirik hamkor davlatlar hissasiga to'g'ri keldi.

* "Boshqa tovarlar" guruhidagi qimmatbaho metallar importi hajmlari "Sanoat tovarlari" guruhidagi rangli metallar tarkibida aks ettirilgan


XSST bo'yicha import tovarlar tarkibi
2026-yil yanvar-iyul

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 287,2	141,9
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	864,9	160,7
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	574,0	136,7
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	434,0	151,2
05	Sabzavotlar va mevalar	352,8	131,9
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	312,9	122,5
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	244,3	132,9
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	217,5	142,6
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	186,7	148,9
00	Tirik hayvonlar	59,5	97,0
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	40,7	158,0
1	Ichimliklar va tamaki	222,2	115,3
11	Ichimliklar	139,3	116,0
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	82,9	114,3
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	909,8	114,1
24	Probka va yog'och-taxtalar	328,7	100,9
28	Metall rudalari va metall parchalari	208,8	109,1
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	100,5	165,1
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	94,4	171,3
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	66,7	129,8
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	44,9	93,4
25	Qog'oz massasi va makulatura	41,1	117,1
23	Tabiiy kauchuk	24,3	83,5
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,3	116,9
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	2 510,0	110,7
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 335,8	115,1
	shu jumladan, yoqilg'i va moylash mahsulotlari:	921,5	100,4
	- benzin	426,0	160,8
	- dizel	163,3	101,1
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 010,0	108,2
	shu jumladan, suyultirilgan gaz (propan)	105,4	3,6 b.
32	Ko'mir, koks va briketlar	108,4	103,6
35	Elektr toki	55,8	82,1
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	363,0	125,3
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	332,3	127,1
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	29,1	105,1
41	Hayvonlarning yog'lari	1,6	2,7 b.
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 589,2	115,6
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 112,3	99,2
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	653,7	111,9

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	550,4	127,9
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalar; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	411,1	133,5
51	Organik kimyo moddalar	295,2	143,0
52	Noorganik kimyo moddalar	229,3	132,1
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	193,2	114,4
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	78,5	116,9
56	O'g'itlar	65,5	141,3
6	Sanoat tovarlari	4 387,6	110,1
67	Cho'yan va po'lat	1 717,7	100,9
68	Rangli metallar	612,9	187,2
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	587,4	101,3
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	350,1	108,6
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	314,2	129,7
62	Rezina buyumlari	305,5	96,0
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	269,3	106,2
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	229,4	96,7
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,1	89,1
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	9 700,4	120,0
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	2 400,8	127,9
781	<i>shu jumladan: asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	920,4	173,5
784	<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	1 086,2	110,9
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 587,7	138,1
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 437,7	100,5
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	1 382,7	89,0
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalar	1 011,3	187,5
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	989,7	148,2
79	Boshqa transport uskunalar	398,3	83,5
	<i>shu jumladan: samolyotlar va boshqa mexanik quvvatga ega uchish apparatlari (vertolyotlardan tashqari)</i>	202,0	58,5
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	393,6	166,4
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	98,6	64,7
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 018,3	114,0
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	330,6	120,8
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	317,2	106,6
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	124,8	125,4
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	110,6	106,5
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	83,3	120,4
85	Poyabzal	22,9	97,4
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	15,7	130,2
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	13,0	92,8

2026-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 3,6 mlrd AQSH dollarini yoki jami import hajmining 12,2 foizini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,3 foizga oshdi.

Xizmatlar importi tarkibi
2026-yil yanvar-iyul, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibida asosiy ulushni sayohatlar (turizm) (43,6 foiz), transport xizmatlari (27,4 foiz), boshqa biznes xizmatlari (10,2 foiz), shuningdek, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (9,2 foiz) tashkil etadi.

IV. Uslubiy ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasining tovarlar bo'yicha tashqi savdo statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan bir qatorda BMTning Xalqaro standart savdo tasnifi (XSST) ham qo'llanadi. Tovarlarga XSST kodlarini berish TIF TN va XSST o'rtasidagi o'tish kalitlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida shakllantiriladi: Bojxona qo'mitasining yuk bojxona deklaratsiyalari hamda Milliy statistika qo'mitasining davlat chegarasini kesib o'tmaydigan, bojxona deklaratsiyasiga kiritilmagan va rezidentlardan norezidentlar foydasiga o'tkaziladigan tovarlar haqidagi statistik kuzatuvlari tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish uchun dastlabki ma'lumotlar hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlari statistikasi esa statistik kuzatuvlar asosida yuritiladi.

Ayrim hollarda yakuniy qiymat va qo'shiluvchilar yig'indisi o'rtasidagi kichik farqlar ma'lumotlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.



V. Aloqador boshqa havolalar

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hududlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

**Chop etishga mas'ul: Tashqi
savdo statistikasi boshqarmasi**

**Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1181)**

